

**AKTNING TIL O'RGANISHDAGI O'RNI**  
**Sobirova Dilorom Xaydaraliyevna – o'qituvchi**  
*Filologiya fakulteti, Fakultetlararo xorijiy tillar kafedrası*  
*Guliston davlat universiteti*

Davrimizning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lgan axborot kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan uning imkoniyatlaridan foydalanib, ta'lim jarayoniga yangicha yondashish va uni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. XXI asr - yuksak texnologiyalar asri bo'lib, zamonaviy yoshlarimiz nafaqat davr ruhiga monand, balki elektron olamdagi taraqqiyotga muvofiq qadam tashlamoqdalar.

Bugungi kunda xorijiy tilni bilish o'ta muhim ahamiyat kasb etganligi bois chet tili o'qitish tizimini ham isloh etish, dars jarayonlarida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or usullarini qo'llash ta'limdagi dolzarb masalalardan biriga aylandi. Shu boisdan ham, yosh avlodga ta'lim berish jarayoni boshqacha yondashuvni talab etmoqda. Yosh avlod tarbiyasida o'qituvchining o'rni ham o'zgarib bormoqda. O'qituvchi endilikda asosan yo'naltiruvchi vazifasini o'tamoqda. Zamon bilan hamnafas qadam tashlashni maqsad qilgan o'qituvchilar darsning har qanday qismini AKT orqali jonlantirishga tayyor bo'lishlarini davr talab etmoqda.

Ta'lim jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ayniqsa, chet tillarini o'qitish va o'rganishda tobora katta ahamiyatga molik bo'lib bormoqda. Yangi axborot texnologiyalari chet tillarini o'qitishda katta imkoniyatlarni taqdim etadi, fan bo'yicha sifatli bilim olish va ta'lim samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi [1].

O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 10-dekabrda «*Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida*»gi Qarorida «*Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya*

*texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon taraqqiyoti yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish»* ishlari va buning uchun bir qator muhim vazifalarni amalga oshirish zarurligi ko'rsatilgan. Mazkur hujjatda 2013-2014 o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablarining birinchi sinflaridan chet tillari avval o'yin tarzida keyinchalik asosiy ta'lim fani sifatida AKT vositalaridan foydalangan holda o'qitish belgilab berilgan. Ushbu muhim Qarorga muvofiq bugun, ayniqsa, chet tillarini o'rganish darslariga yanada chuqurroq nazar tashlandi. Jahon maydonida yurt sha'nini munosib himoya qilishi uchun yoshlarimiz, avvalo o'zining xorijiy tengdoshlari bilan raqobatlasha olishi lozim. Bugun esa raqobat chet tillari, xususan, xalqaro biznes tili bo'lgan ingliz tilida olib borilmoqda.

AKT vositalari - kompyuter texnikasi, magnitofon, kitob, video uskunalari, elektron doska orqali dars vaqtini tejash, yanada ko'proq va samarali ma'lumot olishga imkoniyat demakdir. Bugun yoshlar ham qo'shimcha ma'lumot olish uchun kitobni izlab va varaqlab vaqt sarflamaydilar, balki uni tejab Internetga murojaat etadilar [1].

Chet tillarini o'qitishda Internet hamda uning katta imkoniyatlaridan foydalanishlari natijasida, ta'lim va pedagogik jarayonlariga multimediya texnologiyalarining joriy etilishining istiqbolliligi tobora namoyon bo'lmoqda. Ma'lumki, asosiy kommunikatsiya vositasi sifatida Internet bilan tanishuv to'rt yo'nalishda:

- ✓ Internet axborot olish vositasi sifatida;
- ✓ Internet muloqot vositasi sifatida;
- ✓ Internet o'qitish vositasi sifatida;

- ✓ Internet ko'ngilochar vosita sifatida amalga oshiriladi.

Bunda tarmoqda axborot izlashda kommunikatsiyaning asosiy vositalari (elektron pochta, chat) bilan ishlashni mashq qilishga katta e'tibor qaratiladi. Boshlang'ich bosqichda axborot almashuv jarayoni faqat yozma matn bilan cheklangan bo'lsa, asta-sekin unga grafik va ovozli hujjatlar kiritiladi.

Chet tili darslarida AKT va xususan, Internetdan foydalanish orqali bir necha didaktik masalalarni hal qilish mumkin. Bulardan, talabalar bilimini tekshirishda:

- ✓ turli xildagi on-line, ya'ni interaktiv rejimdagi testlar;
- ✓ off-line testlar, ya'ni testlarning elektron variantidan foydalanish;
- ✓ Internet tizimida bilimi boshlang'ich bosqichdan boshlab eng yuqori bosqichdagi talabalar uchun ko'plab sinovlar TOEFL, IELTS kabi testlar mavjud [2].

Bu kabi testlarning o'quvchi uchun afzalligi obyektiv va tezkor javobidadir. Bir vaqtning o'zida turli bilim saviyasiga ega talabalarga turli testlar berilishi, yangi mavzuni tushuntirishda: dars sifatini fotosuratlar, kliplar, kinolavhalar, videolavhalar orqali oshirish, masalan: o'quvchilar kitob matnidan turli xorijiy davlatlar haqida oddiy ma'lumot olibgina qolmay, shu davlatlarga virtual sayohat qilishlari, chet davlatlarning an'ana va urf-odatlarini haqida videolavhalar, qoshiqlar, kliplar tamosha qilishlari mumkin.

- ✓ O'tilgan mavzuni mustahkamlashda;
- ✓ o'quvchilar loyiha yaratishlari;
- ✓ fanlararo darslar o'tishda qo'shimcha ma'lumot qidirish;
- ✓ taqdimot tayyorlash yoki elektron pochta orqali chet ellik do'stlari bilan suhbat o'tkazish sababli o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini sezilarli darajada ko'taradi.

AKTdan foydalanib, dars o'tishda o'qituvchi unga Davlat standartlari asosida reja tuzib, tayyorgarlik ko'rishi kerak. Darsda AKT hech qachon o'qituvchining o'rnini egallay olmaydi, balki unga ko'makdoshlik vazifasini o'taydi. Dars

mazmuniga ko'ra AKT va boshqa pedagogik texnologiyalarni navbatma-navbat oqilona qo'llashi lozim. AKT'ni dars jarayoniga tatbiq etishdan maqsad darsni boyitish, oddiy kitob bera olmaydigan ma'lumotlarni, didaktik ko'rgazmalarni berishdir.

Shu tariqa, Internetdan foydalanib, chet tilini o'qitish orqali o'qituvchilar ham va o'quvchilar ham o'z ishlarida qulay imkoniyatlarga ega bo'ladilar, shu boisdan ham AKT'ni dars jarayoniga joriy etish dolzarb masala hisoblanadi. Zamonaviy dars samaradorligiga - ta'limiy dasturlar, Internetda axborotni izlab topish, natija sifatida chet tillarini o'rganishga qiziqishning o'sishi, xalqlararo, madaniyatlararo muloqotga aloqadorlikni anglash, ta'lim muhiti doirasini kengaytirish imkoniyati asosida erishiladi [3].

Chet tilini o'qitishda eng samarali yondashuvlar qatorida axborot - kommunikatsiya texnologiyalari vositasida, masofaviy ta'limda til o'rgatish metodikalarini ko'rsatish mumkin. Kompyuter texnologiyalari, ayniqsa, Internetdan foydalanib, til o'rganishda juda keng imkoniyatlar mavjud. Ular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- 1) chet tilida og'zaki munosabatlar bo'yicha o'zlashtirgan bilimlari va malakalaridan amaliyotda faol foydalanib, olgan til materiallaridan faqat o'zining nutqida emas, balki Internet orqali tanishgan suhbatdoshi nutqini tushunishda ham foydalanishga o'rganish;*
- 2) o'zlashtirgan nutqiy bilimlarini munosabatning o'zgaruvchan vaziyatlariga ko'chirish moslashuvchan ko'nikmasini shakllantirish;*
- 3) norasmiy muloqot shaklida amalga oshiriladigan suhbatni uyushtirishga, so'zlashishni o'rganishga nisbatan kuchli, darhol yuzaga keladigan motivatsiyani va haqiqatga yaqin munosabat motivatsiyasini yaratish;*
- 4) psixologik to'siqlarni yengish, xususan, chet tilida so'zlashishdan va xatoga yo'l qo'yishdan cho'chish, to'sig'ini hamda ichki va tashqi tortinish hamda uyalish hissini yo'qotish;*

*5) ko'p sonli nutqiy, yuksak va grammatik birliklarni taqdim etish va o'zlashtirish; bir taqdim etishda 150-200 yangi so'zlar, 30-50 nutqiy namunalar va bir necha odatiy nutqiy hodisalar kiritiladi va o'zlashtiriladi.*

Xulosa qilib aytganda, chet tillarini o'rganish hozirgi davrimizning dolzarb vazifalaridan ekan, o'sib kelayotgan yosh avlodga til o'rgatishning jadal metodlarini ishlab chiqib, ularga tavsiya etish olimlar va o'qituvchilarning kechiktirib bo'lmas ishlaridan hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 1992. - 48 b
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017 - 2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2016 yil 29 dekabrda PQ-2707- son
3. Qurbonov Sh., va boshqalar. Barkamol avlod orzusi ("Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amalga oshirish borasidagi publitsistik mulohazalar). -T.: Sharq, 1998.